O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-noyabr | 370-9-0-Q/24 | Sirdaryo viloyati hokimligi

“Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasining bo‘sh turgan yer uchastkalarini 2024-yil davomida ijara huquqi bilan “E-AUKSION.UZ” elektron savdo maydonchasi orqali sotuvga chiqarish (1,0 gektar yer maydon) uchun boshlang‘ich bahosini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5600-sonli qarori 1-bandi 4-xatboshisi ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil uchun “E-AUKSION.UZ” elektron savdo maydonchasida ijaraga berish huquqi bilan auksionga chiqarish uchun bo‘sh yer uchastkalarining (1,0 gektar yer maydoni) boshlang‘ich bahosini aniqlash narxlari va koeffitsiyentlari bo‘yicha takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga muvofiq qaror qilaman:

1. “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasining bo‘sh yer uchastkalarini 2024-yil uchun ijara huquqi asosida “E-AUKSION.UZ” elektron savdo maydonchasida auksionga chiqarish uchun joylashgan hududidan kelib chiqib, (1,0 gektar yer maydon) boshlang‘ich bahosi hamda yillik ijara to‘lovlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zona Direksiyasi” davlat unitar korxonasi (I.Karimov) 2024-yil uchun yuridik shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida yer uchastkalarini ijara huquqi asosida “E-AUKSION.UZ” elektron savdo maydonchasida auksion orqali sotishda mazkur qaror bilan belgilangan boshlang‘ich baholarga qat’iy rioya qilinishini ta’minlasin.

3. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umarov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari B.Xudjamov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2024-yil 11-noyabrdagi
370-9-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

“Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasining bo‘sh yer uchastkalarini 2024-yil uchun ijara huquqi asosida “E-AUKSION.UZ” elektron savdo maydonchasida auksionga chiqarish uchun joylashgan hududidan kelib chiqib (1,0 gektar yer maydon) boshlang‘ich bahosi hamda yillik ijara to‘lovlari

T/r	**Tuman va shahar nomi**	**1,0 gektar yer maydoni uchun bir yillik ijara miqdori** (*so‘m*)	**Yer uchastkasini ijaraga berish**		**1,0 gektar yer maydoni uchun boshlang‘ich narxi miqdori** (*so‘m*)
			Koeffitsiyent	**So‘m**	
1	Yangiyer shahri	32 400 000	1	32 400 000	81 000 000
2	Sirdaryo tumani	32 400 000	1	32 400 000	81 000 000